MATNLARNI ADABIY TIL ME’YORLARI NUQTAYI NAZARIDAN O‘RGANISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ayxodjayeva M.S.,
O‘ZDJTSU dotsenti

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilining jismoniy tarbiya va sport sohasida qo‘llanishini o‘rganuvchi talabalarni bu tilda savodli muloqot qilishga o‘rgatish, shu tariqa og‘zaki va yozma nutq kompetensiyalarini egallashlarini ta’minlash muammolari tadqiq etilgan, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda sohaviy matnlarni o‘qish jarayonida ularni adabiy til me‘yorlarining qo‘llanishi nuqtayi nazaridan tahlil qilishning ilmiy-metodik ta’minotini ishlab chiqishga harakat qilinlgan.

Kalit so ‘zlar: o‘zbek tili, jismoniy tarbiya va sport, adabiy til me’yorlari, kasbiy matnlar tahlili.

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы обучения студентов, изучающих использование узбекского языка в сфере физической культуры и спорта, компетентному общению на этом языке, обеспечивая тем самым приобретение ими устной и письменной речевой компетенции. Предпринята попытка разработать научно-методическое обоснование анализа профессиональных текстов с точки зрения применения норм литературного языка в ходе практических занятий по предмету «Использование узбекского языка в профессиональной деятельности».

Ключевые слова: узбекский язык, сфера физической культуры и спорта, нормы литературного языка, анализ профессиональных текстов.

Abstract. This article examines the challenges of teaching students studying the use of the Uzbek language in physical education and sports to communicate competently in this language, thereby ensuring their acquisition of oral and written language skills. An attempt is made to develop a scientific and methodological basis for the analysis of professional texts from the perspective of applying literary and linguistic norms during practical classes on the subject "Use of the Uzbek Language in Professional Activities".

Key words: Uzbek language, physical education and sports, literary and linguistic norms, analysis of professional texts.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ta’lim innovatsiyalari ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llaniladi va avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar sanaladi. Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi, “innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo‘llangan.

Bilamizki, lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “innovation” – yangilik kiritish degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi. Innovatsiyalarning ko‘rinishlari: yangi g‘oyalar; tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar; noan’anaviy yondashuvlar; odatiy bo‘lmagan tashabbuslar; ilg‘or ish metodlaridir. Bu tajribalar asosini interaktiv metodlar tashkil etmoqda.

© O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali

Ta’lim va tarbiya jarayonida pedagoglar tomonidan interaktiv metodlarning xilma-xil turlari qo‘llanilyaptiki, ular o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Kakografiya shunday interfaol usullardan biri hisoblanadi. U “...o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi, ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo‘yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O‘quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo‘qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nofaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi.

Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo‘limlari bilan bog‘liq amaliy darslarni o‘tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi”.

Bu kabi metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchida muloqotga kirishuvchanlik, jamoa bilan hamkorlikda faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkon yaratadi. Oliy ta’limda “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” kursini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida ishlash davrning asosiy talabi, hayotning zaruriyati bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek tilining sohada qo‘llanishini o‘rganuvchilar adabiy til me’yorlarini o‘zlashtirishlari uchun oliy ta’lim muassasasi o‘quv dasturida to‘rt akademik soat vaqt ajratilgan bo‘lib, to mavzu o‘tilguniga qadar talabalar ta’limning avvalgi bosqichlarida egallagan bilimlaridan kelib chiqib, amaliy mashg‘ulotlar jarayonida berilgan topshiriqlarni bajarish davomida muntazam ravishda o‘zbek adabiy tili me’yorlarining o‘ziga xos jihatlarini tushunib, anglab boradilar. Dasturga binoan “O‘zbek adabiy tilining imlo qoidalari” mavzusi “Mening sevimli sportchim. Men shug‘ullanadigan sport turiga xos atamalar” bosh mavzusi doirasida o‘tiladi. O‘quv materiali sifatida dunyoning eng buyuk sportchilaridan biri, futbol qiroli Pele haqidagi matn berilgan.

O‘qituvchi grammatik mavzuni tushuntirishi uchun o‘quv qo‘llanmasida berilgan qisqacha ma’lumotni talabalar e’tiboriga havola qiladi. Bu yerda o‘zbek adabiy tili me’yorlari xususida so‘z yuritilgan, ammo eng muhim, odatda ko‘p xatolikka yo‘l qo‘yiladigan nuqtalar ustidagina to‘xtab o‘tilgan.

Bugungi kunda o‘rta va oliy ta’lim muassasalarining til va adabiyot o‘qituvchilariga o‘z o‘quvchi-talabalari bilan badiiy asar tahliliga dunyoning ilg‘or mamlakatlaridagi kabi mutlaqo yangicha yondashish tavsiya etilmoqda. Buning mohiyati shuki, o‘qituvchi talaba ongiga o‘zi yoki shu soha mutaxassislarining tayyor aqidalarini singdirish, asardan albatta siyosat bilan bog‘liq g‘oya izlab, o‘quvchilarni shu g‘oyani qabul qilishga undash kabi amallardan qochishi, asar tahlilini talabalarning o‘zlariga qo‘yib berib, o‘zi faqat yo‘naltiruvchi, tashkilotchi vazifasini bajarishi lozim. Badiiy asar tahlilida interfaol usullar qo‘llanganda, asar tahlili quyidagi bosqichlar bo‘ylab olib boriladi:

1. O‘qishdan oldingi topshiriqlar.
2. O‘qish davomidagi topshiriqlar.
3. O‘qishdan keyingi topshiriqlar.

Bu bosqichlarning har biri matn mazmunini tushunishga xizmat qiluvchi qator amallarni o‘z ichiga oladi.

Garchi mazkur amaliy mashg‘ulotda o‘qish uchun badiiy asar (yoki undan parcha) emas, balki sport sohasiga oid ilmiy-ommabop matn berilayotgan bo‘lsa-da, biz ham xuddi shunday usulda – o‘qishdan oldingi, o‘qish davomidagi va o‘qishdan keyingi topshiriqlar yordamida talabalarning matn mazmunini o‘zlashtirishlari, undan foydalanib, o‘z matnlarini tuzishlari, gaplarni adabiy til me’yorlari nuqtayi nazaridan tahlil qilishlari uchun imkon yaratamiz.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanidan amaliy mashg‘ulotda “Men sevgan sportchi. Men shug‘ullanadigan sport turiga xos atamalar. O‘zbek adabiy tilining imlo oidalari” mavzusini o‘tishda o ‘qituvchi quyidagicha topshiriqlardan foydalanishi mumkin.

1. So‘zlarni orfoepiya qoidalariga muvofiq o‘qing.

Miliy, murabiy, chaqon, xokey, itifoq, aqil, tashabus, komisiya, tanafus, qatiqqo‘l, miliyon, minatdor, talafuz, kata, metal, gramatika, gram, aparat, elik, to‘qiz, sakiz, profesor, egalamoq, yaka, fikir, ilim, sabir, trik, jahil.

2. Savollarga javob bering.

1. Sizning sevimli sportchingiz kim?
2. Uning shaxsiy hayoti haqida nimalar bilasiz?
3. U qanday musobaqalarda qatnashgan?
4. U jahon birinchiliklarida ishtirok etganmi? Qanday natijalar ko‘rsatgan?
5. Nima uchun u sizning sevimli sportchingiz? Sportchining muvaffaqiyati sirlarini, jumladan, texnikasini, taktik mahoratini tahlil qiling.

3. Rasmga qarab, vaziyatni sharhlovchi 3-4 ta gap yozing, so‘nggi gapingiz “Gol!” so‘zi bilan tugasin. Tayyor matnni professional sharhlovchilarga xos ohangda o‘qib bering.



(“Pele” matnini o‘qishga o‘tishdan avval o‘qituvchi televizor yoki elektron doskada mohir futbolchining eng chiroyli gollari aks etgan videolavhani ovozsiz namoyish etib, lavha qahramoni kim ekani, gollar nimasi bilan o‘ziga xosligi, zamonaviy eng kuchli futbolchilardan qaysi biri bu o‘yinchini eslatishi haqida so‘raydi.)

4. “PELE” matnini o‘qish.

5. Matnning ikkinchi abzasidagi gaplarni qayta o‘qing. Ulardagi ish-harakat qachon sodir bo‘lgan? Harakat ifodalovchi so‘zlar qaysi zamonda qo‘llangan? Siz og‘zaki nutqingizda fe’llarni shunday qo‘llaysizmi?

(Pele 1949-yilda kambag‘al oilada tug‘iladi. U 15 yoshida Braziliyaning “Santos” klubidagi eng yaxshi o‘yinchi bo‘lib qoladi, 29 yoshgacha shu klubda o‘ynaydi. 1969-yil 19-noyabrdagi o‘yinda – 20 yoshidayoq u o‘zining 1000-golini uradi. Pele urgan jami gollar soni 1300 ga yaqin bo‘lib, hali biror futbolchi bunday natijaga yaqinlasholmagan).

6. Matnning ajratilgan qismini diqqat bilan o‘qing va so‘zlab bering. Sport atamalarini to‘g‘ri qo‘llang.

(Mutaxassislar fikricha, futbolchi o‘ziga xos jismoniy sifatlarga ega bo‘lgan, tengdoshlari o‘yin-kulgi bilan band bo‘lganda, u aldov harakatlari va zarbalar bilan shug‘ullangan. Mustaqil ravishda texnik xususiyatli murakkab mashqlardan ko‘p foydalanib, to‘pni boshqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan texnika elementlariga e’tibor qaratgan. Aynan 9-10 yoshida, ya’ni texnik ko‘nikmalari takomillashib borayotganda, u to‘pni qabul qilish, boshqarish va uzatish, o‘z yo‘nalishini tezkorlik bilan o‘zgartirgan holda chaqqon va ildamlik bilan raqibidan to‘pni olib qo‘yish kabi harakatlar ustida tinimsiz ishlagan).

7. Matndan olingan quyidagi so‘zlar og‘zaki nutqda qanday talaffuz qilinadi? Nima uchun?

Marvarid, atashgan, bo‘lib qoladi, o‘ynaydi, kubogini, qobiliyat, mashq, qozonib bo‘lmaydi.

8. Matndagi tagiga chizilgan jumlalarni o‘qing. Bu qobiliyatlar dunyoning qaysi mashhur futbolchilarida bor? O‘zbek futbolchilarida-chi?

(To‘pni boshqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan texnika elementlari; o‘z yo‘nalishini tezkorlik bilan o‘zgartirgan holda chaqqon va ildamlik bilan raqibidan to‘pni olib qo‘yish; periferik ko‘rish qobiliyati; ko‘proq maydonni ko‘ra olgan; reaksiya tezligi, vaziyatni tahlil qilish, bir necha soniya ichida eng to‘g‘ri qarorni tanlash qobiliyati; tinimsiz yuqori tezlikda va ikki oyog‘ida zarbalarni mashq qilishi).

9. O‘zingiz shug‘ullanadigan sport turiga oid bo‘lgan 10 ta o‘zbekcha atamani yozing. Bu sport turida ko‘proq qaysi tillardan qabul qilingan atamalar qo‘llanadi? Nima uchun?

10. Quyidagi so‘z va jumlalarning mazmunini bilasizmi? Siz ularni qanday shaklda ishlatasiz?

Badan qizdirish mashqlari, hushtak, doping nazorati, dastlabki holat, durang, maxsus jismoniy tayyorgarlik, yuklama, arg‘amchi, marra, vazn, mashg‘ulot, murabbiy, jamlanish, raqib, hujum, himoya, zarba.

11. Matn yuzasidan savollarga javob bering.

1. Matndan o‘zingiz uchun qanday yangi ma’lumotlar oldingiz?
2. Futbolga oid muammolarni hal qilish uchun davlatimiz qanday tadbirlarni amalga oshiryapti?
3. Siz Futbol federatsiyasi raisi bo‘lganingizda mamlakatda futbolni rivojlantirish uchun nimalar qilgan bo‘lardingiz? Shoshmasdan o‘ylab javob bering.

12. “Pele” matni bilan bog‘lab *BBB jadvalini tuzing, unda avvaldan bilgan, bilib olgan va bilishni istagan ma’lumotlaringizni aks ettiring:*

BBB jadvali asosida bilimlar darajasini baholash

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

O‘qituvchining ishga bunday yondashuvi oliy ta’lim muassasalari talabalarida o‘zbek adabiy tili me’yorlariga rioya qilish, xususan, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda o‘quv-ilmiy matnlarni o‘qib tahlil etish malakasini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Т., 2019.

2. Ayxodjayeva M.S. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. Toshkent.: 2024.

3. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент: Фан ва технология. 2009. – Б.154.

4. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta’lim-tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent., 2013.